



BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSIYA ASOSIDA ONA TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODLARI

Qanoatova Nazokat

University of Economics and pedagogy NOTM,
Iqtisodiyot va pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Ne'matjonova Madinabonu

University of Economics and
pedagogy NOTM talabasi

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinflarda ona tili fanining o'qitishning samadorligini oshirish, ona tili ta'limining mazmuni va maqsadiga muvofiq keladigan topshiriqlar tizimi hamda metodlarini to'g'ri belgilash haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: ona tili, samaradorlik, integratsiya, metod, o'qituvchi, o'quvchi, dars, sinf, boshlang'ich.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida ta'limning asosiy maqsadi – har tomonlama yetuk, mustaqil fikrlovchi, ijodiy yondasha oladigan shaxsni tarbiyalashdir. Bu borada boshlang'ich ta'limning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, ona tili darslari bolalarda og'zaki va yozma nutqni shakllantirish, savodxonlikni rivojlantirish, muloqot madaniyatini o'rgatishda



muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy darslar integratsiya tamoyillari asosida tashkil etilsa, o'quvchilarda chuqur bilim va barqaror ko'nikmalar shakllanadi. Ona tilini boshqa fanlar bilan uyg'un holda o'qitish – ta'lim sifatini oshirishda eng samarali yo'llardan biridir.

Integratsiya mohiyati va uni qo'llash zarurati

Integratsiya (lotincha *integratio* – tiklash, yaxlitlash) – bu turli fanlar o'rtasida bog'liqlik o'rnatish orqali bilimlarni yagona tizimga keltirishdir. Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiya o'quvchilarda ko'p qirrali fikrlashni, har xil sohalardagi bilimlarni uyg'unlashtirishni rivojlantiradi.

Ona tili darslarida integratsiyalashgan metodlar o'quvchining nafaqat til boyligini, balki ijtimoiy, axloqiy, estetik va mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida ta'limning eng yangi shakllarini qo'llash, uni amaliyotda sinab ko'rish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchi ona tili darslari orqali mustaqil ishlash ko'nikmalarini egallaydi va rivojlanadi. Ona tili darslarida rivojlanish, avvalo, o'qitishning dogmatik metodlaridan voz kechish, ko'proq o'quvchini o'ylash, fikrlash, ijodiy faoliyat ko'rsatishga undaydigan metodlarni qo'llash ona tili darslarining tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi imkoniyatlarini butun choralar bilan ishga solish orqali amalga oshiradi. Ona tili ta'limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgaralar fikrini anglash, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maktab amaliyoti, o'qituvchilar jamoasining ijodiy tajribasi o'qitish ishlarini bugungi kun talablari darajasiga ko'tarish “eski” metodlardan voz kechish, uni “yangi” metodlar hisobiga to'ldirish asosida emas, balki o'qitish metodlariga ijodiy yondashish, integratsiya yordamida ularning ichki imkoniyatlarini ishga solish, ya'ni butun o'quv dasturini mukammallashtirish asosida amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatmoqda. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv



jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan kunga ortib bormoqda. Shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar asosida integratsiyadan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. Ta'lim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalari amalga oshirishda qo'llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o'z ichiga oladi. Bu ishlarni amalga oshirishning shakllangan va amaliyotda qo'llanilayotgan har turli usullari va shakllari asosida ko'plab ta'lim metodlari hosil bo'lgan va bu jarayon davom etmoqda. Muayyan ta'lim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshiirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat bo'lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o'ziga xos ta'lim metodini hosil qiladi. Bunda harakatni amalga oshirish yo'li deb bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta yo'llardan oldindan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo'lni aytiladi. Masalan, savod o'rgatish yo'llari: oilada o'rgatish, maktabda o'rgatish, maktabgacha ta'lim muassasasida o'rgatish, o'qituvchi yordamida o'rgatish, kitoblar, kompyuter, ko'rgazma qurollar va boshqalar vositasida o'rgatish. Shunga o'xshash sanoqni, arifmetik amallarni o'rgatishda ham yuqoridagiga o'xshash yo'llardan foydalanish mumkin. Shu yo'llardan foydalashib harakatni amalga oshirishda har turli metodlar qo'llaniladi. Biror metodni qo'llashdagi harakatni amalga oshirish ko'rinishi deb shu harakatni batafsil tasvirlovchi ko'rinishga aytiladi. Bunda harakatning kuzatiladigan o'zgarishlari, vaziyatlari, tezligi va uning ortishi yoki sekinlashuvi, to'xtashlari, bir nechta harakatlarning bir vaqtdaligi yoki ularning vaqt oraliqlari, harakatlar natijasi, amaliy ishlar bajarish mashulotlarida esa, ishlov berilayotgan shakllar, fazoviy xolatlar, ranglar, qattiq-yumshoqlik, sirtlarning tekisligi yoki g'adir-budurligi o'zgarishlari va boshqa kuzatish mumkin bo'lgan turli harakat ko'rinishlari nazarda tutiladi. Inson faoliyatining barcha sohalarida tegishli metodlardan foydalaniladi.



Bu metodlarning eng umumiy belgisini hisobga olgan holda ularni borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish operastiyalarining yoki yo'llarining yig'indisi deyish mumkin. Ushbu qo'llanmada metod tushunchasini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan boliq jihatlardan ko'rib chiqiladi. Shunga muvofiq ta'lim metodlari bilan bog'liq eng asosiy tushunchalarning izohlarini ko'rib chiqamiz. Ona tilini o'qitishda o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyatini tashkil etish shakllari, metodlari va usullari ta'lim tizimining takomillashuvi bilan bog'liq holda rivojlanib, yangilanib bormoqda. XX asrning oxirgi yillariga qadar o'qitish metodlari sifatida tushuntirish, bayon metodi, suhbat metodi, analiz-sintez metodi, mustaqil ish metodi, induktiv va deduktiv metodlar ona tili ta'limi darslarini tashkil etishda ko'proq qo'llanilib kelindi.

1. Suhbat metodi- boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda keng qo'llaniladigan va shu bosqich o'quvchilari tabiatiga mos metod sanaladi. Suhbat metodi savol-javob metodi deb ham yuritilgan. Suhbat metodi muhim belgilarini aniqlash, ularning o'xshash va farqli jihatlarini ajratish, o'xshash va farqli jihatlariga qarab guruhlash, umumlashtirishga, xulosa chiqarishga yo'naltirilgan savollar tuzishni, ularni o'quvchilarga izchil berib borishni talab etadi.

2. Induksiya metodida o'quvchilar o'qituvchi tavsiya etgan til dalillarini kuzatadi, tahlil qiladi va shu asosda xulosa va ta'riflar keltirib chiqaradi.

3. Deduksiya metodida o'quvchi tayyor qoida –ta'rif bilan tanishadi va uning mohiyatini til dalillari asosida ochadi. Bu metodlarning samarasi o'qituvchining savol-topshiriqlari mazmuni grammatik hodisaning muhim tomonlariga yo'naltirilganligiga, izchilligiga, faoliyatni tashkil etish shakllariga, o'quv vositalari (darslik, turli xarakterdagi lug'atlar, rasm, jadvallar, texnik vositalar)ga bog'liq bo'ladi .

Integratsiya asosida ona tili darslarini tashkil etish yo'llari:

1. Matematika bilan integratsiya



Ona tili darsida matematik elementlardan foydalanish bolalarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Masalan:Gapdagi son va miqdor ifodalarini ajratish;Soʻzlar sonini sanash;Sifat darajalarini solishtirish orqali son tushunchalarini mustahkamlash.

2. Atrof-muhit bilan integratsiya

Oʻquvchilarga tabiat, hayvonot olami, fasllar haqida matnlar tuzish, tajribalar asosida matn tuzish orqali kuzatish malakasi bilan birga tahliliy fikrlashni rivojlantirish mumkin.Misol: "Bahor fasli" mavzusida hikoya tuzish, tasvirlab berish, fasl belgilarini sanab oʻtish.

3. Axloqiy tarbiya bilan integratsiya

Ona tili darsida maqollar, hikmatli soʻzlar, ertaklar orqali bolalarda axloqiy tushunchalar shakllantiriladi. Bunday materiallar oʻquvchilarning nutqini boyitish bilan birga, tarbiyaviy maqsadni ham koʻzlaydi.Misol: "Halollik – eng yaxshi fazilat" mavzusida suhbat, matn yozish.

4. Tasviriy sanʼat bilan integratsiya

Oʻquvchilar matn asosida rasm chizishlari yoki tasvir asosida matn tuzishlari mumkin. Bu ijodiy yondashuv til va tasviriy ifoda koʻnikmalarini birgalikda rivojlantiradi.Misol: Ertakdagi voqeani tasvirlab berish va unga rasm chizish.

5. Texnologiya va musiqa bilan integratsiya

Qoʻshiq matnlarini tahlil qilish, ularning ifodaviy vositalarini oʻrganish orqali bolalarning eslab qolish qobiliyati kuchayadi. Qoʻl mehnati mashgʻulotlari bilan bogʻlangan ona tili darslari esa tasavvur va muloqot faoliyatini mustahkamlaydi.

6. Axborot texnologiyalari bilan integratsiya



Multimedia vositalaridan foydalanish (prezentatsiya, audio-video yozuvlar, interaktiv topshiriqlar) o'quvchilarda motivatsiyani oshiradi. Masalan, darsga tayyorlangan taqdimot, hikoyani eshitish va uni ifodalash.

Metodik tavsiyalar

Quyidagi metodlar ona tili darslarini integratsiyalashgan holda tashkil etishda samarali bo'ladi:

"Fikrlar klasteri" usuli: Biror mavzuga oid asosiy tushunchalarni tarmoq tarzida ifodalash;

"Venn diagrammasi": O'xshash va farqli jihatlarni taqqoslash;

Rol o'ynash: Ertak yoki hikoya asosida rolli o'yin tashkil qilish;

Mini loyiha: O'quvchilar kichik tadqiqot olib borib, ona tilida taqdimot qilishadi;

Didaktik o'yinlar: Alfavit o'yini, "So'z toping", "Gap tuzing" kabilar. Yuqoridagi barcha metodlarning muvaffaqiyati o'qituvchining beradigan savol-topshiriqlariga bog'liq. Yo'l-yo'lakay duch kelgan savollar bilan kichik yoshdagi o'quvchining anglash faoliyatini ishga solish kutilgan natijani bermaydi.

XULOSA

Metodlarni o'z o'rnida integratsiyalashgan holda qo'llay olish mahoratiga ega bo'lgan pedagog ta'limdan ko'zlangan maqsadiga yetadi. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish bilan bir qatorda integratsion darsni tashkil qila olgan pedagog, mohir pedagog bo'libgina qolmay, o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshirgan holda ta'lim hamda tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida ilm-fan yutuqlaridan amaliyotda foydalanish mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli shaxsni



tarbiyalashdek muhim vazifani bajarishda pedagog-kadr oldiga qo'yiladigan bugungi davr talabi sanaladi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar. Yuqorida aytib o'tganlarimiz ta'lim sifatini yaxshilash, oshirish bilan birga pedagog-o'qituvchining ham zimmasidagi vazifasini ado etishdagi yordam beradigan ma'qul yo'l, usul hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'ulomov A va b. Ona tili o'qitish prinsplari va metodlari. Toshkent, 1992. B. 43.
2. Nazarova S. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent. 1992. B. 25.
3. Qosimova K va b. "Ona tili o'qitish metodikasi", Toshkent, "Nosir" nashriyoti". 2009. B. 205-209.
4. Karimova R.A., Normurodova G.M. – Boshlang'ich ta'limda zamonaviy dars: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2020.
5. O'quvchilarning savodxonligini oshirish bo'yicha metodik qo'llanma. – Toshkent: Innovatsion metodlar markazi, 2022.
6. Usmonov I., Nurmuxamedova N. – Didaktik o'yinlar va ularning ta'limdagi roli. – Samarqand: Barkamol avlod, 2019.
7. "Zamonaviy dars va innovatsion metodlar" – O'qituvchi jurnali, 2023, 2-son.